<i>Norqulova Ma'mura Husniddin qizi</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladigan "Tabiiy fanlar"dan mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi.....	574
<i>Qo'qonboyeva Shaxlo Rafikjonovna</i>	
The Intersection of Science and Pedagogy: The Teacher's Role in Professional Evolution	580
<i>Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Shukurova Madina</i>	
Maktabgacha katta guruhlarida STEAM texnologiyasi bilan tanishtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari	583
<i>Rakhimova Laylo Hamidjon qizi</i>	
Hamshiralik ishida raqamli texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi.....	586
<i>Rasulova Gulmira, Amonova Dildora, Abdurahmonov Aziz, Hakimova X. X.</i>	
Kurashchilarda muvozanat (balance) va ko'tarib uloqtirish texnikasi o'rtasidagi bog'liqlik	590
<i>Shermatov Gulom Qaxxorovich</i>	
O'qituvchi shaxsining o'zini o'zi rivojlantirishida akmeologik pozitsiyaning o'rni.....	594
<i>Xaitov Abdukosim Abdulakim o'g'li</i>	
Lego-qurilish, konstruksiyalash, robototexnika – STEAM ta'lim moduli sifatida	596
<i>Xamroyeva Sitara Samadovna</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	599
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	



Maktabgacha ta'limda axborot kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'limiy o'yinlarni loyihalash va joriy etish	602
<i>Xikmatova Moxinur Amir qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlar orqali kognitiv qobiliyatlarni rivojlantirish zamonaviy yechimlarini ishlab chiqish usullari	605
<i>Xolmo'minova Mohichehra Bahrom qizi</i>	
O'quvchilarning biologiyaga qiziqishini oshirishda innovatsion ta'lim metodlari	609
<i>Xudayberganova Madina Saotboy qizi, Abdiqodirov Murodxo'ja Alisher o'g'li, Nishanbayeva Arayim User qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida shug'ullanuvchi voleybolchi qizlarning musobaqa oldi jismoniy va psixologik tayyorgarligini takomillashtirish metodikasi	612
<i>Xudoynazarova Sayyora Ravshanovna</i>	
Maktabgacha ta'limda milliy qadriyatlar asosida bolalarni axloqiy tarbiyalash texnologiyalari	618
<i>Yo'ldoshboyeva Gulmira Xushnudovna</i>	
Umumta'lim maktab seksiyasi uzunlikka sakrovchilarining jismoniy rivojlanganlik darajasi	621
<i>Zokir Akramov O'tkir o'g'li</i>	
Perseptiv qobiliyat: o'qituvchining o'quvchini tushunish sa'nati	625
<i>Zokirov Mirzaraxim Abdaliyevich</i>	
Ожидания и потребности родителей как основа продвижения услуг дошкольного образовательного учреждения в Республике Узбекистан	628
<i>Ким Ирина Николаевна, Аббосхонова Зухра Баходир кизи</i>	
Экспериментальная деятельность – метод развития здоровьесберегающей компетентности у детей старшего дошкольного возраста	631
<i>Ким Ирина Николаевна, Алиходжаева Райхон Шавкат кизи</i>	
Подготовка детей-билингвов к школьному обучению: интеграция цифровых и традиционных педагогических методов	634
<i>Ким Ирина Николаевна, Умарова Шоиста Рустамовна</i>	
Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishda interaktiv metodlarning o'rni	637
<i>Islamova Dilfuza Dilshodovna, Baymurotova Madina Baxodir qizi</i>	
Methodological Support of the Process of Developing Preschoolers' Cognitive Skills Through TRIZ (TIPS) in a Technology-Enhanced Learning Environment	641
<i>Gauxar Djanpeisova, Veronika Gorbunova</i>	
Innovative Approaches to Early Mathematics Education and Development in Preschool Children	646
<i>Gauxar Djanpeisova, Shaxodat Berdiyeva</i>	
Ta'lim jarayonida intensiv texnologiyalar asosida mantiqiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi	650
<i>Radjabova Mohigul Alisherovna</i>	
O'quv jarayonida ongli mushohada ko'nikmasini rivojlantirishda savol-javob usulidan foydalanish asoslari	653
<i>Ro'zimetova Intizor Alimovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari yozuv malakalarini shakllantirishning psixolingvistik tasnifi	656
<i>Axmadaliyev Murodjon Ulug'bek o'g'li, Xojimatova Shoxsanam Erkinjon qizi</i>	
Ta'limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'qituvchi kompetensiyasiga ta'siri	659
<i>Azamatova Rayhona Bahromjon qizi</i>	
13-14 yoshli o'quvchilarda harakatli o'yinlar va zamonaviy futbol mashg'ulotlarini integratsiya qilishning pedagogik asoslari	662
<i>Babayev Anvarjon Axmedovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijtimoiy kompetensiyalarni rivojlantirish (nazariya, amaliyot va natijalar) ...	666
<i>Berdiyev G'ayrat Ulaboyevich, A. N. Sadatova</i>	
Elektron portfoliolar asosida individual rivojlanishni monitoring qilishning diagnostik modeli	670
<i>Kopbayeva Baxtigul Ziyadadinovna</i>	
Pedagogik atamalarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati	674
<i>Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li</i>	
Abdulla Avloniyning axloqiy-ta'limiy qarashlari	678
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Turg'unov Dostonbek Rustamjon o'g'li</i>	

Talabalarda ma'naviy-axloqiy ideallarni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	682
<i>Ziyotov Farrux Saodilla o'g'li</i>	
Nazorat qiluvchi pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda sun'iy intellektning ahamiyati	686
<i>Ermonov Sherzod Ibrayim o'g'li</i>	
Kreativ yondashuv asosida bo'lajak muhandislarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari	690
<i>Ibragimova Aziza Avaz qizi</i>	
Oliy ta'limda dual ta'lim va malakaviy amaliyotni takomillashtirish ("musiqqa ta'limi" misolida)	694
<i>Raximov Nurillo Narzullayevich</i>	
Uzluksiz ta'lim tizimida musiqa san'atining shaxs ma'naviy-estetik tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati	698
<i>Sattarov Alisher Alikul o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda multimediali mantiqiy masalalar orqali o'quv jarayonini faollashtirish.....	702
<i>Jamoldinova Dildora Alijon qizi</i>	
Ta'lim markazlarida o'quvchilarning nutq kompetensiyalarini rivojlantirish metodologiyasi	706
<i>Buriyeva Xumoraxon O'lmasboy qizi</i>	
Raqamli jamiyatda o'smir yoshdagi o'quvchilarning huquqiy axborot olish madaniyatini rivojlantirish mexanizmlari	710
<i>Xayrullayev Axror Aktam o'g'li</i>	
AI-грамотность будущих педагогов: компоненты, вызовы и педагогические стратегии этической интеграции искусственного интеллекта	713
<i>Наркабилова Г. П.</i>	
Роль психолого-педагогических факторов в формировании нравственного поведения дошкольников.....	718
<i>Рахматходжаева Ф. М.</i>	
Внедрение инновационных технологий в дошкольно-образовательном учреждении	721
<i>Садикова Шоиста Акбаровна</i>	
Para stol tennisi sportchilarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish samaradorligi	726
<i>X. A. Usmonova</i>	
Systematic Approach to the Issues of Educational Calculation in General Secondary Schools	729
<i>Ajiniyazova Sholpan Saparniyazovna</i>	
Роль системного профессионального развития в формировании компетентности учителей английского языка: международные тенденции и практика Узбекистана.....	733
<i>Жамолиддинова Нилуфар Акрамжоновна</i>	
Boshlang'ich sinf tabiiy fan darslarida funksional savodxonlikni rivojlantirish usullari	738
<i>Xujamkulova Nafisa Ruzikulovna, Saidmudova Maftuna Alisher qizi, Hafizova Oydinoy Doniyor qizi, Xujamkulova Maqsuda Ruzikulovna</i>	
Ingliz tili darslarida Kahoot o'quv platformasidan samarali foydalanish	743
<i>Amankulov Shavkat Qudratovich</i>	
Bolalarning kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishda polisensor muloqot metodikasi	747
<i>Musratova Zilola Ulug'bekovna</i>	
Коммуникативные способности педагога – ключ к эффективному взаимодействию с учащимися.....	752
<i>Акрамова Л. Ю.</i>	
Искусственный интеллект в образовании: киберпедагогические стратегии развития критического мышления.....	756
<i>Сайфитдинов Исломбек Зоирович</i>	
Регион как фактор суицидального риска: от климата до культуры общения.....	761
<i>Султанова Амина Анваровна, Махсумова Зилола</i>	
Bo'lajak shifokorlarga anesteziologiya va reanimatologiya fanini o'qitishning nazariy asoslari.....	765
<i>Ismailov Oybek Abdurasulovich</i>	
Sun'iy intellekt (SI)ning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi metodik ahamiyati	768
<i>Komilov Furqat Solijon o'g'li</i>	
Implementing Total Physical Response Techniques in Your Language Class	770
<i>Rakhmatova Madina Sobirovna</i>	



ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA TARBIYA TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA INTERAKTIV METODLARNING O'RNI

Islamova Dilfuza Dilshodovna

Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti

Baymuratova Madina Baxodir qizi

Toshkent Amaliy fanlar universiteti
Boshlang'ich ta'lim 02-guruh talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqola tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuvlarni tatbiq etishga bag'ishlanadi. Unda o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishida o'yinli metodlar va psixologik mashg'ulotlarning o'rnini yoritilgan. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: tarbiya, innovatsiya, zamonaviy yondashuv, raqamli muhit, axloq, qadriyat.

Abstract: In today's fast-paced world, methods of upbringing must undergo significant changes. This article analyzes the integration of innovative technologies into the system of character education. Upbringing is not merely dry advice but a way to find a path to a child's heart. The article discusses the importance of gamified technologies and psychological training in working with students. Furthermore, it presents personal observations on how to effectively utilize digital tools for beneficial purposes within the educational process.

Key words: upbringing, innovation, modern approach, digital environment, ethics, values.

Аннотация: В современном стремительном мире методы воспитания также должны меняться. В данной статье анализируется вопрос внедрения инновационных технологий в систему воспитания. Воспитание – это не просто сухие наставления, а поиск пути к сердцу ребенка. В статье рассматривается значение игровых технологий и психологических тренингов в работе с учащимися. Также приводятся личные наблюдения о том, как можно эффективно использовать цифровые инструменты во благо в процессе воспитания.

Ключевые слова: воспитание, инновация, современный подход, цифровая среда, мораль, ценности.

KIRISH

Globallashuv jarayonlari jadallashib, axborot xurujlari kuchayib borayotgan hozirgi sharoitda barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ta'lim va tarbiya – bir-biridan ajralmas jarayondir, birisiz ikkinchisi bo'lmaydi." Ushbu hayotiy tamoyil mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

Tarbiya tizimini innovatsion asosda takomillashtirishning huquqiy asosi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son¹ Farmonini alohida ta'kidlash lozim. Mazkur Farmonda yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ularning intellektual hamda ma'naviy salohiyatini yuksaltirishga qaratilgan aniq maqsad va vazifalar belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son² qarori tarbiya jarayoniga ilmiy asoslangan innovatsion metodikalarni joriy etishda muhim dasturilamal bo'lib xizmat qilmoqda.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi "O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida"gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

2 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 1059-son qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>

Mazkur hujjatlarda belgilangan vazifalardan kelib chiqib, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni shunchaki nasihatgo'ylikdan iborat jarayon sifatida emas, balki zamonaviy, interaktiv muloqot shakliga o'tkazish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Bugungi axborotlashgan jamiyat sharoitida an'anaviy tarbiya metodlari o'z samaradorligini yo'qotib borayotgan bir paytda, maktab amaliyotiga "storytelling" (hayotiy voqealarni tahlil qilish), "keys-stadi" (muammoli vaziyatlarni yechish) hamda interaktiv o'yinli texnologiyalarni joriy etish o'ta dolzarb hisoblanadi. Ushbu innovatsion yondashuvlar o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyat hissini kuchaytirish va ma'naviy immunitetni shakllantirishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirish masalasi pedagogika fanining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. X. I. Ibragimov va Sh. A. Abdullayeva tomonidan 2020-yilda nashr etilgan "Pedagogika nazariyasi" asarida tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan va interaktiv yondashuvlarning ilmiy-metodik asoslari keng yoritilgan. Mualliflar ta'lim va tarbiyaning uzviyligini ta'kidlab, zamonaviy pedagogdan tayyor bilim beruvchi emas, balki o'quvchini faol fikrlashga undovchi fasilitator bo'lish talab etilishini asoslab berganlar. Ushbu yondashuv interaktiv metodlarning tarbiya samaradorligini oshirishdagi ahamiyatini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etishda innovatsion va interaktiv metodlarning o'rni S. F. Sharifzoda tomonidan 2021-yilda e'lon qilingan ilmiy tadqiqotlarda alohida tahlil qilingan. Olim tarbiya jarayonini faqat axloqiy me'yorlarni singdirish emas, balki o'quvchining ichki ehtiyojlari va ijtimoiy faolligini rivojlantirishga yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi. Uning fikricha, keys-stadi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va muloqotga asoslangan metodlar o'quvchilarda mas'uliyat, mustaqil qaror qabul qilish va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi. Bu yondashuv tarbiyani nazariy tushunchalardan amaliy hayotiy tajribaga aylantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda interaktiv metodlarning ta'lim va tarbiyadagi o'rni STEAM yondashuvi misolida ham ilmiy asosda yoritilmoqda. S. B. Qudratova, J. D. Atenov va S. Z. Normurodovlarning 2025-yildagi tadqiqotlarida STEAM ta'lim texnologiyalari orqali o'quvchilarda ijodkorlik, hamkorlik va muammoli vaziyatlarda ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, X. Abdullayevaning 2025-yildagi ilmiy ishlari interaktiv va inklyuziv metodlar orqali bo'lajak pedagoglarning kasbiy va tarbiyaviy tayyorgarligini oshirishga e'tibor qaratadi. Ushbu tadqiqotlar interaktiv metodlarning zamonaviy ta'lim muhitida tarbiya tizimini takomillashtirishdagi muhim ilmiy-amaliy ahamiyatini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur ilmiy maqolada tadqiqot metodologiyasi sifatida sifat va miqdoriy yondashuvlar uyg'unligidan foydalanildi. Ma'lumotlar pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, shuningdek, umumta'lim muassasalarida tarbiyaviy jarayonni kuzatish orqali olindi. Bundan tashqari, o'qituvchilar va o'quvchilar ishtirokida o'tkazilgan so'rovnoma va suhbatlar empirik ma'lumotlar manbai bo'lib xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar tavsifiy va taqqoshlama tahlil usullari asosida qayta ishlanib, interaktiv metodlarning tarbiya jarayoniga ta'siri aniqlandi. Tahlil jarayonida umumlashtirish va tizimlashtirish usullari qo'llanilib, ilmiy xulosalar chiqarildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tarbiya tizimida innovatsiyalar deganda, ko'pchilik faqat kompyuter texnologiyalari, multimedia vositalari yoki sinf xonasidagi interaktiv doskalarni tushunadi. Biroq haqiqiy innovatsiya – bu bolaning qalbiga boradigan yo'lni yangilash, uning qiziqishlari, ichki motivatsiyasi va dunyoqarashiga mos keladigan metodlarni qo'llashdir. Texnika shunchaki vosita bo'lib, tarbiyaning asl mazmuni insoniy munosabatlar va yangicha pedagogik yondashuvda namoyon bo'ladi.

Bugun maktab ostonasiga kelayotgan bola axborot texnologiyalari bilan birga ulg'aygan "raqamli avlod" (Alpha avlodi) vakili hisoblanadi. Ularning tafakkuri tezkor, vizual idrokka tayangan va mantiqiy xulosalarga asoslangan. Shu sababli ularga an'anaviy, bir tomonlama "nasihatgo'ylik" yoki quruq ma'ruza usullari orqali ta'sir o'tkazish kutilgan natijani bermayapti. Aksincha, bunday yondashuv zamonaviy o'quvchida ichki qarshilik va zerikish holatini yuzaga keltirishi mumkin.

Hozirgi davr pedagogidan "nasihatgo'y" bo'lish emas, balki "fasilitator" (yo'naltiruvchi) rolini bajarish talab etilmoqda. Tarbiya jarayoniga innovatsion yondashuv quyidagi jihatlarni o'z ichiga olishi lozim:

- interaktiv muloqot – bolani tinglash va uning fikri bilan hisoblashish;



- vaziyatli o'yinlar – axloqiy me'yorlarni quruq qoidalar shaklida emas, balki hayotiy simulyatsiyalar orqali o'rgatish;
- tanqidiy fikrlash – axborot xurujlari sharoitida oqni qoradan ajrata olish ko'nikmasini shakllantirish.

Tarbiya tizimini yangilash – bu bolani texnologiyalar olamida yolg'iz qoldirish emas, balki raqamli imkoniyatlardan oqilona foydalangan holda uning ma'naviy olamini boyitishdir. Faqat qalbga yo'l topa oladigan metodlarga haqiqiy shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

Shu nuqtayi nazardan, tarbiya jarayoniga quyidagi innovatsion yondashuvlarni joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

- 1. Interaktiv tarbiya va “Loyiha usuli” (Project-based learning).** An'anaviy tarbiya tizimida o'quvchi asosan tayyor axloqiy o'g'itlarni qabul qiluvchi “obyekt” vazifasini bajarib kelgan. Biroq innovatsion “Loyiha usuli” mazkur yondashuvni tubdan o'zgartiradi. Tarbiya jarayoni faqat nazariy suhbatlar bilan cheklanib qolmasdan, real ijtimoiy amaliyotga ko'chirilishi lozim. Masalan, o'quvchilarga “Mening mahallam – mening faxrim”³ yoki “Tabiatni birgalikda asraymiz” kabi kichik ijtimoiy loyihalar topshirilganda, ular muammoni o'rganish, yechim izlash va natija uchun javobgarlikni his qilishni o'rganadilar. Ushbu metod o'quvchini shunchaki tinglovchidan faol ijodkor va mas'uliyatli shaxsqa aylantiradi. Bu jarayonda bola o'z mehnatining samarasini ko'radi va jamiyatga foyda keltirish hissini anglaydi.
- 2. “Storytelling” yoki hayotiy hikoyalarni tahlil qilish.** Insoniyat tarixida hikoya qilish doimo eng kuchli tarbiya vositalaridan biri bo'lib kelgan. Olim R. H. Jo'rayev ta'kidlaganidek, tarbiya jarayonida bolaning ichki intuitsiyasi va imkoniyatlarini uyg'otish hal qiluvchi ahamiyatga ega. “Storytelling” metodi orqali o'quvchilarga quruq “mumkin emas” tarzidagi taqiqlar emas, balki hayotiy voqealar, ibratli hikoyalar va qahramonlarning murakkab tanlovlari taqdim etiladi. Muhimi, hikoyaning xulosasi tayyor holda berilmaydi, balki o'quvchilarning o'zlari mustaqil mantiqiy xulosa chiqarishiga yo'naltiriladi. Ushbu yondashuv o'quvchini mustaqil mushohada yuritishga, voqelikni tanqidiy tahlil qilishga hamda ma'naviy qadriyatlarni shaxsiy tajriba sifatida qabul qilishga o'rgatadi.
- 3. Raqamli tarbiya va axborot madaniyati.** Bugungi axborot asrida tarbiyaviy ishlarni texnologiyalardan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “O'zbekiston – 2030 strategiyasi”da yoshlarni vatanparvarlik va milliy g'urur ruhida tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Shu bois, tarbiya soatlariga internetdagi foydali ma'rifiy kontentlar, ijtimoiy roliklar, virtual muzey ekskursiyalari va interaktiv infografikalarni joriy etish zarur. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi o'quvchilarda “axborot filtri”ni⁴ shakllantirishdan iborat. Ya'ni, o'quvchi cheksiz axborot oqimi ichidan qaysi ma'lumot ma'naviy ozuqa berishini, qaysisi esa zararli ekanini mustaqil ajrata olish madaniyatini egallaydi.
- 4. Keys-stadi (vaziyatli tahlil).** Mazkur metod o'quvchilarni real hayotiy qiyinchiliklarga tayyorlashning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Bunda bolalarga kundalik hayotda, maktab muhitida yoki jamoat joylarida uchrashi mumkin bo'lgan axloqiy jihatdan murakkab vaziyatlar (keys) taklif etiladi. Masalan, do'stlik va shaxsiy manfaat to'qnash kelgan holatda qanday yo'l tutish lozimligi haqidagi muammo jamoaviy muhokama qilinadi. Bu jarayonda L. Kohlberg nazariyasida bayon etilganidek, bolaning ma'naviy ongi bosqichma-bosqich rivojlanadi. O'quvchilar turli nuqtayi nazarlarni tinglash, murosaga kelish va eng adolatli yechimni tanlash orqali ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantiradilar. Ushbu metod tarbiyani quruq nazariy tushunchalardan iborat jarayondan haqiqiy “hayot maktabi”ga aylantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Bugungi ta'lim transformatsiyasi davrida tarbiya va innovatsiyani bir-biridan ayro holda tasavvur etib bo'lmaydi. “O'zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash, xususan, intellektual salohiyatga ega avlodni voyaga yetkazishda an'anaviy, bir qolipli metodlardan voz kechish davr taqozosidir. Bugungi kunda ta'lim mazmunini loyihaviy yondashuv (Project-based learning) va ilg'or raqamli texnologiyalar negizida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Xususan, storytelling (hikoyachilik mahorati) va keys-stadi (muammoli vaziyatlarni tahlil qilish) kabi interaktiv metodlar o'quvchini shunchaki passiv tinglovchidan tarbiya jarayonining faol ishtirokchisi va izlanuvchisiga aylantiradi. Bunday yondashuv o'quvchida nafaqat bilimlarni egallashni, balki hayotiy ko'nikmalarni (soft skills) ham rivojlantirishga xizmat qiladi.

3 Sharifzoda, S. F. “Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar”. Pedagogika jurnali, №3, 2021-yil.

4 Ibragimov, X. I., Abdullayeva, Sh. A. “Pedagogika nazariyasi”. Toshkent, “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020-yil



Eng muhimi, ushbu innovatsion muhit ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy orzu qilgan yuksak ma'naviyatni zamonaviy dunyoqarash bilan uyg'unlashtirish uchun mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Zero, tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat masalasidir. Innovatsiyalar esa bu yo'lda ma'naviy merosimizni yangicha talqinda yoshlar ongiga singdirishning eng samarali vositasidir.”

“Innovatsiya – bu shunchaki texnologiya emas, balki bolaning ichki imkoniyatlarini uyg'otuvchi, uning qobiliyatlarini yuzaga chiqaruvchi o'ziga xos muhitdir. Biz yaratib borayotgan ushbu innovatsion muhit orqali o'quvchilarda nafaqat chuqur bilim, balki bugungi murakkab davrning begona va yot g'oyalariga qarshi tura oladigan mustahkam ma'naviy immunitet ham shakllanadi.

Zero, tarbiya tizimini zamon bilan hamnafas ravishda doimiy yangilab borish – Yangi O'zbekistonning intellektual salohiyatli va mustaqil fikrlovchi komil insonlarini voyaga yetkazishning eng ishonchli yo'lidir. Xulosa qilib aytganda, ta'lim va tarbiya uyg'unligi ta'minlangan muhitda voyaga yetgan avlod millatning eng katta boyligi hamda davlatimiz barqarorligining mustahkam kafolati bo'lib xizmat qiladi.”

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi “O'zbekiston – 2030 strategiyasi to'g'risida”gi PF-158-son Farmoni: <https://lex.uz/docs/-6600413>
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi “Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 1059-son. qarori: <https://lex.uz/ru/docs/-4676839>
3. Abdullayeva, X. (2025). Improving pedagogical training of future primary school teachers in the context of inclusive education. *International Journal of Artificial Intelligence*, 1(3), 473–474.
4. Ibragimov, X. I., Abdullayeva, Sh. A. “Pedagogika nazariyasi”. Toshkent: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2020-yil.
5. Sharifzoda, S. F. “Ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida innovatsion yondashuvlar”. *Pedagogika jurnali*, №3, 2021-yil.
6. Qudratova, S. B., Atenov, J. D., & Normurodov, S. Z. (2025). Boshlang'ich ta'limda STEAM ta'lim texnologiyasi fanining umumiy asoslari, predmeti va vazifalari. *Inter Education & Global Study*, (2), 142–153.
7. Qudratova, S., To'rabekova, D. (2023). The role of STEAM education in the formation of the future teacher's personality. *Modern Science and Research*, 2(9), 40–44.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.